

BOLALARNING TO‘LAQONLI SHAKLLANISHIDA TARBIYANING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Shukurova Farog‘at Xo‘janazarovna

Samarqand viloyati Urgut tumani 156-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalarning to‘laqonli rivojlanishida tarbiyaning psixologik ahamiyati, tarbiya jarayoniga ta‘sir etuvchi omillar hamda shaxs shakllanishida oila va ta‘lim muassasasining roli yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy psixologik yondashuvlar asosida tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, bola rivojlanishi, psixologiya, shaxs shakllanishi, oila, maktab, emotsional rivojlanish, ijtimoiylashuv, motivatsiya, qadriyatlar.

KIRISH

Bola shaxsining to‘laqonli shakllanishi murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, unda tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarbiya orqali bola nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallaydi, balki axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy xulq-atvor me‘yorlari va shaxsiy sifatlarni ham shakllantiradi. Shu sababli tarbiya psixologik jihatdan shaxs rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Psixologik nuqtai nazardan tarbiya bolaning ichki dunyosi, emotsional holati va motivatsiyasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. To‘g‘ri tashkil etilgan tarbiya jarayoni bolada o‘ziga ishonch, mas‘uliyat hissi, empatiya va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Aksincha, noto‘g‘ri tarbiya shaxs rivojlanishida turli psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bolaning shaxs sifatida shakllanishida oila birlamchi tarbiya muhiti hisoblanadi. Ota-ona munosabati, oiladagi psixologik muhit va muloqot madaniyati bolaning hissiy rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Mehr-oqibat, qo‘llab-quvvatlash va ishonch asosida qurilgan oila muhiti bolada barqaror psixologik holatni shakllantiradi. Maktab esa tarbiyaning ikkinchi muhim bosqichi hisoblanadi. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchilar nafaqat bilim beradilar, balki tarbiyaviy ta‘sir ham ko‘rsatadilar. O‘qituvchining shaxsiy namunasi, muloqot uslubi va pedagogik mahorati bolalarning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Lev Vygotskyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bola shaxsining shakllanishi ijtimoiy muhit va muloqot jarayonlari orqali amalga oshadi. Demak, tarbiya jarayoni doimiy ijtimoiy o‘zaro ta‘sirlar asosida kechadi. Shuningdek, Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, bolalar kattalarni kuzatish va taqlid qilish orqali xulq-atvorni o‘zlashtiradilar. Bu esa tarbiyada shaxsiy namunaning qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Tarbiya jarayonida ijobiy motivatsiyani shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bolaning muvaffaqiyatlarini e'tirof etish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda rivojlanishga bo'lgan intilishini kuchaytiradi. Bundan tashqari, tarbiya jarayonida emotsional intellektni rivojlantirish ham dolzarb hisoblanadi. Bola o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqalar hissiyotlarini tushunish va ijtimoiy vaziyatlarga mos munosabat bildirishni o'rganadi. Bu esa uning jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi.

Tarbiya shaxslarning shaxsiyati, munosabati va xulq-atvorini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oila birlamchi ijtimoiy birlik bo'lib, shaxs tarbiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bolalar o'zlarining birinchi qadriyatlarini, e'tiqodlari va xatti-harakatlarini oila a'zolaridan o'rganadilar va bu ularning kelajakdagi keng jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini shakllantiradi. Biroq, jamiyat va madaniy qadriyatlarining rolini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi, chunki ular shaxs tarbiyasida ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada biz bola tarbiyasiga hissa qo'shadigan turli xil omillarni va sotsializatsiya jarayonining shaxsning shaxsiyati, axloqiy qadriyatlarini va ijtimoiy ko'nikmalariga ta'sirini o'rganamiz.

Tarbiya - ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun, avvalo tarbiyalanishi zarur. Abu Lays Samarqandiy "Bo'stonul-orifin" asarida tarbiya va tarbiyalashning ma'nosini ta'riflab: "Ey o'g'il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala, tarbiya ko'rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga yetadi", - degan edi. Ibn Sino ijodiyotida ham bu g'oya alohida o'rin tutadi. "Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil", - deydi alloma. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama shaxsni shakllantirish. Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi. Tarbiyaning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tarbiyalanuvchilarning maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash;
- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;

- ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiyaning oila va jamiyatdagi rolini o'rganish uchun biz akademik jurnallar, kitoblar va onlayn manbalardan tegishli tadqiqotlar bo'yicha adabiyotlarni ko'rib chiqdik. Biz tarbiya uslublari, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy-iqtisodiy maqomning shaxs tarbiyasiga ta'sirini o'rganadigan tadqiqotlarga e'tibor qaratdik. Shuningdek, biz sotsializatsiya jarayoni va uning shaxsga, axloqiy qadriyatlariga va ijtimoiy ko'nikmalarga ta'sirini ko'rib chiqdik.

Adabiyotlarni ko'rib chiqishimiz shuni ko'rsatdiki, tarbiya uslublari, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy-iqtisodiy holat bola tarbiyasiga sezilarli ta'sir qiladi. Yuqori darajadagi iliqlik va nazoratni o'z ichiga olgan nufuzli tarbiya uslublaridan foydalanadigan ota-onalar yaxshi tarbiyalangan va boshqalarga ijobiy munosabatda bo'lgan bolalarni tarbiyalashga moyildirlar. Boshqa tomondan, yuqori darajadagi nazorat yoki past darajadagi nazoratni o'z ichiga olgan avtoritar yoki ruxsat beruvchi tarbiya uslublaridan foydalanadigan ota-onalar salbiy munosabat va ijtimoiy ko'nikmalari past bo'lgan bolalarni tarbiyalashga moyildirlar.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, shaxsning ilk kamol topishi, avvalo, oilaviy muhitda shakllanadi. Oila jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim bo'g'ini bo'lib, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda asosiy tarbiya markazi hisoblanadi. O'zbek oilalarida ta'lim va madaniy savodxonlikning nisbatan yuqoriligi farzandlarning bilimli, fikrlovchi, tashabbuskor va ijtimoiy faol shaxs bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratadi. Oilaviy tarbiya jarayoni ikki tomonlama xususiyatga ega: ota-onalar nafaqat farzandlariga axloqiy, ma'naviy va ruhiy qadriyatlarni singdirishi, balki o'zlari ham zamonaviy tarbiya usullari va psixologik bilimlarni egallab borishi zarur. Chunki tarbiya jarayonida ota-onaning shaxsiy namunasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bola uchun oila — bu jamiyatning birinchi modeli hisoblanadi. Unda bola huquq, burch, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy me'yorlarni ilk bor angelaydi. Shu jarayonda uning dunyoqarashi, shaxsiy qadriyatlari va xulq-atvori shakllanib boradi. Oiladagi psixologik muhit esa bolaning emotsional holati, ishonchi va o'zini anglashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya mohiyatan shaxsni hayotga tayyorlash jarayoni bo'lib, uning mazmuni jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog'liqdir. Inson o'z atrofidagi munosabatlar asosida dunyoni idrok etadi, tafakkurini shakllantiradi va hayotiy pozitsiyasini belgilaydi. Shu sababli oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng chuqur va ta'sirchan shakli hisoblanadi. Oiladagi ma'naviy-psixologik muhit bolaning shaxs sifatida shakllanishida asosiy omillardan biridir. Mehr-oqibat, qo'llab-quvvatlash va ishonch mavjud bo'lgan oilada bolada o'ziga ishonch, ijtimoiy

moslashuv va mas'uliyat hissi rivojlanadi. Aksincha, e'tiborsizlik yoki hissiy sovuqlik hukm surgan oilada esa xulqiy va emotsional muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Shaxs kamolotida nafaqat oila, balki maktab, tengdoshlar va keng jamiyat ham muhim rol o'ynaydi. Bu institutlar bolaning ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtirib, uning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini boyitadi. Natijada shaxs o'ziga xos ijtimoiy identifikatsiyaga ega bo'ladi. Tarbiya jarayoni ma'lum tamoyillarga asoslanadi: maqsadga yo'naltirilganlik, insonparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, tizimlilik, yosh xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy hayot bilan bog'liqlik, jamoa ta'siridan foydalanish hamda ijobiy sifatlarni rivojlantirish kabi tamoyillar tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi. Umuman olganda, sog'lom va barkamol shaxsni shakllantirishda oila markaziy o'rin tutadi. Ota-onaning tarbiyaviy saviyasi, jamiyatning ijtimoiy sharoitlari va madaniy qadriyatlar uyg'unligi shaxsning kelajakdagi hayot yo'lini belgilab beradi.

O'quvchilar odatda hayot adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boyliklar, qahromonlar hayoti va jasorati shuningdek tarix, adabiyot, san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari shuningdek, ommaviy axborot vositalari - radio televidenie, gazeta jurnallar sahifalarida hamda internet matbuotida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o'quvchilar uchun qimmatli material bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq atvoriga taqlid qiladilar, xulq atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning ba'zan, esa, yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qtuvchi va otaonalar har, qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qayerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozimdir. Kattalarning so'zi bilan yurish - turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak. Tarbiya vaqti qachonki vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, "kuchli harakatga keltiradigan"

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarbiya shaxslarning oila va jamiyatdagi xatti-harakatlari, munosabatlari va e'tiqodlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ota-onalar, maktablar, diniy muassasalar va jamoat tashkilotlari bolalarga sog'lom va ijobiy tarbiya berish uchun birgalikda ishlashlari kerak. Bunga ijobiy qadriyatlar, e'tiqodlar va xatti-harakatlarni targ'ib qiluvchi nufuzli tarbiya uslublari, madaniy xilma-xillik va ijtimoiylashuv imkoniyatlarini targ'ib qilish orqali erishish mumkin. Shunday qilib, biz ko'proq inklyuziv, hamdard va farqlarga toqat qiladigan jamiyatni yaratishimiz mumkin. Bola tarbiyasida Oila va Jamiyatning ham birdek xissasi bordir. Chunki bola oilada ilk bor ta'lim- tarbiya olsa, uni maktabgacha ta'limda yanada shakllantiradi, mustahkamlaydi va qisqa tushuntirish, nasihat yoki o'yinlar orqali tarbiya elementlarini egallaydi. Egallagan tarbiyani esa albatta jamiyat va o'zaro munosabatlarda qo'llaydi. Bu esa bola tarbiyasining asosi hisoblanadi. Oilada bola

tarbiyasining milliy o‘ziga xos qoidalari mavjud bo‘lib, ota-onalar ulardan o‘rinli foydalanishlari lozim. Oilada ma’naviy-ruhiy hotirjamlik, o‘zaro totuvlik xukmron bo‘lsa, oila a‘zolari bir-birlariga g‘amxo‘r bo‘lsalar, bola tarbiyasining tayanch nuqtasini topa olsalar, bunday muhit bola tarbiyasiga ijobiy ta’sir etadi va ular farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan ishimizda rivojlanish, jamiyatimizda olg‘a siljish bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Adiba Jumanazarovna Raximova. Bola tarbiyasida maktabgacha ta’lim, oila va jamiyatning o‘rni. "Science and Education" Scientific Journal May 2021 / Volume 2 Issue 5.
2. Samarkand Agricultural Institute. History and Ideas of Pedagogy (Textbook). Samarkand2014. Page 14
3. O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Toshpolatova et al. Preschool education pedagogy. A textbook for pedagogical colleges. (Completed and revised 2nd edition). T.: «ILM ZIYO», 2011. - 184 p.
4. Jamoa. Oila pedagogikasi. T., “Aloqachi”, 2007
5. A. Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq”. T., “O‘qituvchi”. 1994
6. M. Imamova. Oilada bolalarning ma’naviy axloqiy tarbiyasi — T. “O‘qituvchi”. 1999